

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Murodova Nargiza

BuxDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi

Omonova Nilufar

**BuxDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası
o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10437504>

Annotatsiya: Maqola O'zbekistondagi turizm sohasida 2018 – 2021-yillar oralig'idagi o'sish va rivojlanish tendensiyalarini o'z ichiga oladi. Bu davr COVID-19 boshlanishidan oldingi va COVID-19 tarqalgan vaqtlarni o'z ichiga olib davlatni turizmga qanday ta'sir ko'rsatganini tasvirlaydi.

Kalit so'zlar: turizm, turistik xizmatlar, sayyohlar, turistik industriya, korxona, mehmonxona, ekskursiya, muzey.

Kirish. O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishiga hissa qo'shadigan omillardan biri bu turizmdir. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun hozirgi kunda ancha ishlar olib borilmoqda, turizmni rivojlantirish uchun Prezidentimiz ham hozirgi davr talabiga mos qonun va qarorlar qabul qilmoqda. Bunga birgina misol 2018-yil O'zbekistonda turizm sohasida juda ko'p yangiliklar kuzatildi: turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi farmon va qarorlar, xalqaro va mahalliy tadbirlar, yangi ta'lim muassasalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, sayyohlar oqimining oshishi, yangi turistik mahsulotlar, yangicha yo'nalishlarni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirishga oid sa'y-harakatlar, xorijiy investorlarni jalb qilish, OAV vakillarining tashrifi hamda O'zbekistonning ko'plab xalqaro reytinglarda yuqorilashi shular jumlasidandir. Maqolamiz turiz sohasi xizmat ko'rsatish tarmoqlarining o'sish sur'atlarini va ularning o'ziga xos jihatlarini o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. Quyida o'tgan yil davomida turizmni rivojlantirish yo'lida amalga oshirilgan ishlar, muammolar hamda yaqin kelajak uchun ko'zda tutilgan rejalar haqida batafsil aytib o'tamiz. 2018-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatda turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan 11 hujjat, Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa 25 normativ-huquqiy hujjat imzolandi.¹ 2018-yil O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni 16 196 559 mingga yetdi.

Sayyohlar foydalangan xizmat va ular sonlar ko'rinishida quyidagicha aks etadi:

Turistik firma va tashkilotlar tomonidan	713 167
Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari	2 125 926
Sanitariya-kurort muassasalari tomonidan	426 571
Dam olish tashkilotlari va turistik bazalar tomonidan	237 407



1-rasm. O'zbekistonda 2017-2018-yillarda qayd etilgan joylashuv vositalari soni.


Manba: kun.uz

Bu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda mehmonxonaga bo'lgan talab ya'nada oshmoqda. Ko'rsatkich 2019-yilga kelib yanada oshdi va keyingi 4 yilda faqatgina ko'tarilish qayd etildi. Mamlakatga tashrif buyuruvchi jami sayyohlar soni 17 667 177 ming kishiga yetdi, bu ko'rsatkich 2018-yilga qaraganda ancha yuqori.

2019-yil foydalanilgan xizmatlar

1) Turistik firma va tashkilotlar tomonidan	941 990
2) Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari	2 193 394
3) Sanitariya-kurort muassasalari tomonidan	528 308
4) Dam olish tashkilotlari va turistik bazalar tomonidan	398 664

2019-YILDA FOYDALANILGAN XIZMATLAR



2-rasm. 2019-yilda turizm sohasida foydalanilgan xizmatlar nisbati(foiz hisobida)

Manba: Muallif ishlanmasi


Endi 2020-yilga keladigan bo'lsak bu yilgi ko'rsatkichlar 2018-2019-yillardan ancha farq qiladi, ya'ni 2020-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni ancha kamaygan. Bunga sabab Covid-19 pandemiyasi bo'lib, bu nafaqat O'zbekistonning, balki butun dunyoning sayohatlar oqimiga, iqtisodiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. 2020-yil tashrif buyurgan sayohlar soniga keladigan bo'lsak, bu davrda mamlakatga 4 574 812 ta sayyoh tashrif buyurgan.

Foydalanilgan xizmatlar:

1) Turistik firma va tashkilotlar tomonidan	212 349
2) Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari	702 838
3) Sanitariya-kurort muassasalari tomonidan	219 902
4) Dam olish tashkilotlari va turistik bazalar tomonidan	126 581 ²

Ko'rib turganingizdek, Covid-19 davrida sayyohlar ham foydalanilgan xizmatlarga ham juda katta ta'sir ko'rsatgan.

² O'zbekistonda turizm. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi. Toshkent. 2022.




3-rasm. 2020-yil sayyohlarning turistik resurslardan foydalanganlik nisbati(foiz ko'rsatkichda).Manba: Muallif ishi

2021-yilga kelsak, bu yilda tashrif buyurgan sayyohlar 2020-yildan ancha ko'paygan, ya'ni 2021-yili 6 238 852 ta sayyoh tashrif buyurgan.


- | | |
|---|-----------|
| 1) Turistik firma va tashkilotlar tomonidan | 577 766 |
| 2) Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari | 1 216 976 |
| 3) Sanitariya-kurort muassasalari tomonidan | 381 731 |
| 4) Dam olish tashkilotlari va turistik bazalar tomonidan | 404 168 |

Ko'rinib turibdiki, mehmonxona va joylashtirish vositalari eng ko'p foydalanilgan xizmatlar turiga kiradi.



4-rasm. 2021-yil sayyohlarning turistik resurslardan foydalanganlik nisbati(foiz ko'rsatkichda).Manba: Muallif ishi

2018-2019-2020-2021-yillar



5-rasm. 2018-2019-2020-2021-yillarda tashrif buyurgan sayyohlar(foiz ko'rsatkichida)

Manba: Muallif ishi

Ko'rib turganingizdek, bu jadvalda tashrif buyurgan sayyoh sonida keskin farqlar bor, bunga sabab Covid-19 davri bo'lib, bu davrda sayyohlar soni ancha tushgan va keyingi yillarda o'sish sur'atlari sezilarli darajada o'sgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston, turistlarga unikal joylar, zamonaviy va qadimgi madaniyat, yaxshi xizmat ko'rsatish va do'stlik tajribasini taklif etadi. Bu esa mamlakatni sayohat uchun qiziqarli vaqt o'tkazish uchun ideal manzil qiladi.

References:

1. Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son
2. O'zbekistonda turizm. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi. Toshkent. 2022.
3. Djurayeva, N. B., & Omonova, N. R. (2022). Sog'liqni saqlash turizmi mahsuloti dizaynini yaratish masalasi. *Science and Education*, 3(5), 1655-1659.
4. Omonova, N. R. K., & Djurayeva, N. B. (2021). AN OVERVIEW OF HEALTH TOURISM WITHIN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S TOURISM STRATEGY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 754-759.
5. Uktamovna, Akhrorova Nilufar. "THE FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE ON TOURISM AND YOUTH POLICY." *Journal of new century innovations* 31.1 (2023): 125-131.
6. <https://kun.uz>
7. <https://uzbekistan.travel/uz>